

ONLINE TA`LIM TIZIMINI AFZALLIGI VA KAMCHILIKLARI

Tuyg‘unov Chirmash Fayzullayevich

Kalit so`zlar: imoniyat, afzallik, kamchiliklar, internet, muloqot, ta`lim, yondashuv, ko`nikma.

KIRISH

Onlayn ta’lim — ta’lim jarayonining internet va raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilishi bo‘lib, o‘quvchilar va o‘qituvchilar masofadan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kimdir an’anaviy ta’lim shaklini ma’qul ko‘rsa, boshqalar onlayn ta’limni afzal deb biladi. Onlayn va an’anaviy mashg‘ulotlarni taqqoslash odat tusiga kirib qolgan, ammo onlayn va oflays o‘qishni qarama-qarshi qo‘yish noto‘g‘ri. Ikkala format ham o‘z xususiyatlariga ega. Shubhasiz, ikkisining ham afzallikkari bor, ularning har biri alohida holatlar uchun samaralidir. Odatda, natija kontekst, mavzu, o‘quv maqsadlari, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, ta’lim mahsulotini amalga oshirish sifati va boshqa bir qator omillarga bog‘liq.

Onlayn ta’limning afzallikkari

Moslashuvchanlik

- O‘quvchilar o‘zlariga qulay vaqtida va joyda ta’lim olishlari mumkin.
- Ish yoki boshqa majburiyatlarga moslashish imkoniyati.

Keng qamrov va resurslarga kirish

- Dunyoning istalgan nuqtasidan eng yaxshi ta’lim resurslariga ega bo‘lish.
- Turli formatdagi (video, audio, interaktiv) o‘quv materiallari.

Shaxsiylashtirilgan o‘rganish

- Individual o‘quv yo‘llarini yaratish va o‘z tezligida o‘rganish.
- Qayta ko‘rish va takrorlash imkoniyati.

Xarajatlarning kamayishi

- Yo‘l, turar joy va boshqa xarajatlar kamayadi.
- Ba’zi kurslar bepul yoki arzon narxda taqdim etiladi.

Texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirish

- Onlayn platformalarda ishslash orqali zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish.

Onlayn ta’limning kamchiliklari

Texnik muammolar

- Internet sifati va tezligi ta’lim sifatiga ta’sir qiladi.
- Qurilmalar yetishmasligi yoki eskirganligi.

Motivatsiya va intizomning pasayishi

- Uy sharoitida o‘rganish ko‘proq o‘zini o‘zi boshqarishni talab qiladi.

- Diqqatni jamlash va tartibni saqlash qiyinlashadi.
- Ijtimoiy muloqotning cheklanishi
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri yuzma-yuz muloqotning yo‘qligi.
- Guruhda ish, munozara va jamoaviy faoliyatning kamayishi.
- O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangi ko‘nikmalar zarurati
- Onlayn ta’lim vositalaridan samarali foydalanishni o‘rganish talab qilinadi.
- Pedagogik usullarni moslashtirish zarurati.
- Baholash va monitoring muammolari
- O‘quvchilarning bilimini adolatli va samarali baholash qiyinlashadi.
- Plagiat va o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish muammolari.

XULOSA

Onlayn ta’lim tizimi zamonaviy ta’limni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi, ammo unga xos texnik, psixologik va tashkiliy muammolarni e’tiborga olish zarur. Samarali foydalanish uchun texnologik infratuzilma, pedagogik yondashuv va o‘quvchilarning motivatsiyasini ta’minalash muhim ahamiyatga ega.